

**YASHIL INVESTITSİYALAR VA MOLIYALASHTIRISH  
MEXANIZMLARI****Maxmudov Anvarjon***Farg‘ona davlat texnika**universiteti, katta o‘qituvchisi**anvar\_maxmudov1968@mail.ru***Mirzajonov Diyorbek Ixtiyor o‘g‘li***Farg‘ona davlat texnika**universiteti, 2-bosqich talabasi*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada yashil investitsiyalar va moliyalashtirish mexanizmlari masalasi global va O‘zbekiston kontekstida tahlil qilingan. Tadqiqotda Osiyo tijorat banklarining yashil loyihalarni moliyalashtirishdan qochishining asosiy sabablari — yuqori xavf darajasi va past daromadlilik omillari — ko‘rib chiqilgan. Global yashil investitsiyalar bozorining 2020–2021-yillardagi holati tahlil qilinib, yetakchi davlatlar bo‘yicha moliyaviy taqsimotning keskin asimmetriyasi aniqlangan. O‘zbekistonda yashil moliyalashtirish tizimining joriy holati, institutsional to‘siqlar va rivojlanish istiqbollari o‘rganilgan. Tadqiqot natijalari asosida milliy yashil obligatsiyalar bozorini shakllantirish, bank sektorini rag‘batlantirish, erkin iqtisodiy hududlarda yashil klasterlar tashkil etish va xalqaro moliya institutlari bilan hamkorlikni kuchaytirish bo‘yicha amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

**Kalit so‘zlar:** yashil investitsiyalar, yashil moliyalashtirish, yashil obligatsiyalar, qayta tiklanadigan energiya, erkin iqtisodiy hududlar, tijorat banklari, O‘zbekiston, barqaror rivojlanish, iqlim moliyasi, yashil iqtisodiyot.

**Kirish.** So‘nggi yillarda global iqlim o‘zgarishi, tabiiy resurslarning kamayishi va atrof-muhitning ifloslanishi mamlakatlar va kompaniyalarni ekologik barqarorlikni ta‘minlashga majbur qilmoqda. Shu munosabat bilan yashil investitsiyalar — ya‘ni iqtisodiy foyda bilan birga ekologik barqarorlikni ham qo‘llab-quvvatlaydigan loyihalarga jalb qilinadigan moliyaviy resurslar — dolzarb ahamiyat kasb etdi. Yashil investitsiyalar nafaqat energiya samaradorligi va chiqindilarni kamaytirishga, balki barqaror ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishga ham xizmat qiladi.

Milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishini: Bugungi ta‘minlashning ustuvor vazifalaridan biri jahonda barqaror rivojlanishning muhim sharti bo‘lgan "yashil moliya"ni rivojlantirishning umumiy yo‘nalishlarini aniqlash, moliyalashtirish va "yashil" iqtisodiyotni rivojlantirish konsepsiyasini ishlab chiqish, shuningdek, "yashil" iqtisodiyotning eng muhim yo‘nalishlarini o‘rganish va tahlil qilish hisoblanadi, Yashil o‘sish va global maqsadlar uchun hamkorlik-2030 Janubiy Koreyadagi

sammitda Sh.M.Mirziyoyev "Bugungi kunda ona tabiatning ozi bizga yo‘llayotgan ogohlik qo‘ng‘irog‘iga beparvo bo‘lmasligimiz kerak, Afsuski, iqlim o‘zgarishlari tobora kuchayib bormoqda. Biz yashayotgan Markaziy Osiyoda so‘nggi 30 yilda o‘rtacha yillik harorat taxminan bir darajaga ko‘tarildi. Mamlakatimizdagi asosiy daryolarning havzasi va biologik xilma-xillikning qisqarib borayotgani jiddiy xavotir uyg‘otmoqda. Bug‘lanish darajasini oshiradigan gazlar va atmosferaning keng miqyosda ifloslanishi muammolarni yanada chuqurlashtirmoqda. Bugungi kunda yashil taraqqiyot borasidagi maqsadlarga erishish uchun mamlakatlarning harakatlari yanada faol va samarali bo‘lishi kerakligiga hech kim shubha qilmayapti. Boshqa choramiz ham yo‘q" degan fikrlarni ta'kidlab o‘tdi.[6]

Bugungi kunda O‘zbekistonning yashil iqtisodiyot siyosati milliy miqyosda qator dasturlar va farmonlar orqali mustahkamlanmoqda. Jumladan, Prezidentning 2019-yil 4- oktabrdagi PF-4477-son Farmoni2 bilan “Yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi” tasdiqlanib, 2030-yilgacha bo‘lgan davr uchun quyidagi ustuvor yo‘nalishlar belgilangan: — energiya samaradorligini 20 foizga oshirish; — qayta tiklanuvchi energiya ulushini 25 foizga yetkazish; — issiqxona gazlari chiqindilarini 10 foizga kamaytirish; — ekologik toza texnologiyalarni keng joriy etish. Bu maqsadlarni amalga oshirish uchun investitsiyalarni jalb etish mexanizmlari takomillashtirilmoqda. Xususan, yashil obligatsiyalar, yashil kreditlar, xalqaro donor grantlari va davlat–xususiy sheriklik (PPP) asosidagi loyihalar orqali moliyaviy resurslar shakllantirilmoqda. Bunday mexanizmlar nafaqat davlat sektorini, balki xususiy tadbirkorlik sub’yektlarini ham yashil o‘zgarish jarayoniga jalb etish imkonini beradi.

Bugungi global iqtisodiy va ekologik vaziyat yashil iqtisodiyotga o‘tishni nafaqat zarur, balki shart bo‘lgan strategik yo‘nalish sifatida ko‘rsatmoqda. Dunyodagi ko‘plab mamlakatlar bu borada faol siyosat yuritmoqda va har biri o‘ziga xos yondashuvni tanlagan.

“Yashil o‘shish” indeksi bo‘yicha Shvetsiya, Daniya, Chexiya va Germaniya yetakchi davlatlar qatoridan o‘rin olib, ekologik barqarorlik, resurslardan samarali foydalanish va yashil iqtisodiyot imkoniyatlarini rivojlantirishda yuqori natijalarga erishgan. Ushbu davlatlarning reytingi ularning ekologik siyosati, qayta tiklanadigan energiya ulushi, atrof-muhitni muhofaza qilish bo‘yicha ko‘rgan choralari va iqtisodiy o‘shishni ekologik barqarorlik bilan uyg‘unlashtirishga qaratilgan harakatlari bilan bog‘liq.

Xalqaro amaliyot shuni tasdiqlaydiki, yashil moliya butun dunyo miqyosida jadal rivojlanish sur'atlarini saqlab kelmoqda. Jumladan, 2024-yilda global yashil obligatsiyalar bozori hajmi 2 trillion AQSh dollaridan yuqoriga ko‘tarildi. Ushbu mablag‘larning katta qismi — 40 foizi energetika sohasiga, 4 dan 1 qismi transport infratuzilmasiga, 15 foizi esa qurilish va uy-joy yechimlariga sarflandi. Mazkur

tendentsiya O‘zbekiston uchun ham yangi iqtisodiy imkoniyatlar eshigini ochib bermoqda.[7]

Bundan tashqari, respublikamizda "Yashil banklar" g‘oyasi asosida ekologik yo‘nalishdagi loyihalarni moliyalashtirishning zamonaviy usullari tatbiq etilmoqda. Tijorat banklari ijtimoiy mas'uliyat tamoyillaridan kelib chiqib energiyate jamkorligi hamda muqobil energiya manbalarini qo‘llab-quvvatlovchi kredit vositalarini faol ravishda ishlab chiqmoqda.

Yashil investitsiyalar tizimining ahamiyati faqat iqtisodiy samaradorlik bilan cheklanib qolmaydi. U bir vaqtning o‘zida ekologik xavfsizlikni mustahkamlash, iqlim o‘zgarishlari salbiy ta'sirini yumshatish va xalqaro reyting tashkilotlari oldida mamlakatning barqarorlik obro‘cini oshirish kabi muhim vazifalarni ham bajaradi. Ana shu sababli yashil moliyalashtirish mexanizmlarini kengaytirish va chuqurlashtirish O‘zbekiston uchun strategik ustuvorlik darajasiga ko‘tarilmoqda.

Yashil investitsiyalar va moliyalashtirish mexanizmlari mavzusi so‘nggi o‘n yillikda xalqaro ilmiy hamjamiyatning faol tadqiqot yo‘nalishiga aylandi. Ko‘plab olimlar va xalqaro tashkilotlar yashil moliyalashtirish tizimining rivojlanishidagi institutsional to‘siqlarni o‘rganishga e’tibor qaratmoqda. Osiyo banklarining(xususan O‘zbekiston) yashil moliyalashtirish sohasidagi ishtiroki hali ham cheklangan darajada ekanligi ko‘plab tadqiqotlarda qayd etilgan. Mavjud ilmiy manbalar shuni ko‘rsatadiki, mintaqadagi tijorat banklari asosan ikki o‘zaro bog‘liq omil tufayli yashil loyihalarni moliyalashtirishdan qochadi: birinchisi — ushbu sohadagi yuqori xavf (risk) darajasi, ikkinchisi — qazib olinadigan energiya loyihalariga nisbatan yashil investitsiyalarning nisbatan past daromadliligi. Ushbu ikki omil birgalikda banklar uchun an'anaviy sektor loyihalarini ustun qo‘yish uchun iqtisodiy rag‘bat yaratadi. Yashil investitsiyalarni rag‘batlantirish maqsadida dunyo miqyosida bir qator ixtisoslashgan moliyaviy institutlar tashkil etilgan. Quyidagi jadvalda yirik yashil investitsiya banklari va ularning asosiy faoliyat yo‘nalishlari keltirilgan: ( 1-jadval )

1-jadval

## Yirik investitsiya banklari

№	Bank nomi	Manzil	Asosiy yo‘nalish	Yillik moliyalashtirish hajmi \$
1	European Investement Bank(EIB)	Yevropa Ittifoqi	Iqlim va yashil infratuzilma	100 mlrd

2	Asian Development Bank (ADB)	Osiyo	Qayta tiklanadigan energiya	6 mlrd
3	World Bank	Global	Xususiy sector yashil loyihalari	10 mlrd
4	Green Climate Fund(Gcf)	Global (BMT)	Iqlim moslashuvi va yumshatish	3 mlrd
5	Asian Infrastructure Investment Bank	Osiyo	Yashil infratuzilma	5 mlrd

Mintaqalar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini ta'minlash va ekologik barqarorlikka erishish maqsadida samarali boshqaruvning turli mexanizmlari taklif etilgan. Adabiyotlarda erkin iqtisodiy hududlar (EIH) alohida e'tibor qaratilgan vosita sifatida ko'rib chiqiladi. Xalqaro statistik ma'lumotlarga ko'ra, hozirgi kunda dunyoda 3,5 mingdan ziyod erkin iqtisodiy hudud faoliyat yuritib, ular 140 ga yaqin mamlakatni qamrab oladi. Ushbu hududlarda band bo'lgan ishchilar soni 70 million kishidan oshadi, bu esa EIHLarning global miqyosda iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyatini yaqqol namoyon etadi.[5]

Ushbu tadqiqotda yashil investitsiyalar va moliyalashtirish mexanizmlari mavzusi qiyosiy tahlil, adabiy sharh hamda statistik ma'lumotlarni umumlashtirish metodlari orqali o'rganilgan. Tadqiqot manbalari sifatida xalqaro moliyaviy tashkilotlarning hisobotlari (Jahon banki, ADB, GCF), ilmiy maqolalar va normativ-huquqiy hujjatlar tahlil qilingan. Osiyo banklarining yashil moliyalashtirish bo'yicha xatti-harakatlarini tushuntirish uchun xavf-daromad nisbati modeli qo'llanilgan. Ushbu model orqali tijorat banklarining investitsiya qarorlariga ta'sir etuvchi iqtisodiy omillar — risk darajasi va kutilayotgan daromad ko'rsatkichlari — miqdoriy jihatdan baholangan. Erkin iqtisodiy hududlarning yashil investitsiyalarni jalb etishdagi rolini aniqlash uchun global statistik ko'rsatkichlar — EIH soni, qamrab olingan mamlakatlar geografiyasi va band qilingan ishchilar soni — asosiy mezon sifatida qabul qilingan. Tadqiqot natijalari taqqoslash va umumlashtirish usullari yordamida talqin etilgan hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Xalqaro moliya statistikasiga ko'ra, 2020-yil yakuni va 2021-yil yanvar oyida global "yashil" moliya investitsiyalari hajmi 1,3 trillion AQSh dollariga baholangan. Yetakchi davlatlar bo'yicha taqsimot quyidagicha:(2-jadval)

**2-jadval**

**Yashil moliya investitsiyalari bo'yicha yetakchi davlatlar**

№	Davlat	Investitsiya hajmi(mlrd \$)	Global ulush(%)
1	Aqsh	303,0	23,3
2	Fransiya	167,2	12,9
3	Xitoy	199,1	15,3
4	Germaniya	157,1	12,1
5	Shvetsariya	53,8	4,5
6	Ispaniya	57,7	4,4
7	Yaponiya	37,7	2,9

Ushbu raqamlar yashil moliyalashtirish bozorida geografik jihatdan keskin asimmetriya mavjudligini ko'rsatadi: AQSH, Xitoy va yirik Yevropa davlatlari birgalikda global hajmning 72,5% dan ziyodini tashkil etadi. O'rta Osiyo va xususan O'zbekiston bu raqamlarda hali alohida o'rin egallamagan — bu esa tadqiqotimizning asosiy muammosini belgilaydi. Xalqaro moliya statistikasiga ko'ra, 2020-yil yakuni va 2021-yil yanvar oyida global "yashil" moliya investitsiyalari hajmi 1,3 trillion AQSh dollariga baholangan. Yetakchi davlatlar bo'yicha taqsimot quyidagicha:

Ushbu raqamlar yashil moliyalashtirish bozorida geografik jihatdan keskin asimmetriya mavjudligini ko'rsatadi: AQSH, Xitoy va yirik Yevropa davlatlari birgalikda global hajmning 72,5% dan ziyodini tashkil etadi. O'rta Osiyo va xususan O'zbekiston bu raqamlarda hali alohida o'rin egallamagan — bu esa tadqiqotimizning asosiy muammosini belgilaydi.[1]

O'zbekiston so'nggi yillarda yashil iqtisodiyotga o'tish borasida muhim institutsional qadamlar qo'yimoqda. 2019-yilda tasdiqlangan "O'zbekiston — 2030" strategiyasi va 2021-yilda qabul qilingan Iqlim o'zgarishiga moslashuv milliy strategiyasi yashil investitsiyalar uchun huquqiy zamin yaratdi. Shuningdek, O'zbekiston 2030-yilga qadar qayta tiklanadigan energiya ulushini umumiy energiya balansida 25% ga yetkazishni maqsad qilib qo'yan. Moliyaviy ko'rsatkichlar jihatidan, O'zbekiston 2021–2023-yillarda xalqaro moliya institutlari — Osiyo Taraqqiyot Banki (ADB), Jahon banki (World Bank) va Yevropa Tiklanish va Taraqqiyot Banki (EBRD) — orqali yashil loyihalar uchun 3,2 mlrd. dollardan ortiq mablag' jalb etdi. Biroq bu ko'rsatkich davlatning iqtisodiy salohiyati va ehtiyojlariga nisbatan hali yetarli emas.[4]

O'zbekistonda yashil investitsiyalarni moliyalashtirishda quyidagi tizimli to'siqlar mavjud:

Birinchi — bank sektorining ishtiroki cheklanganligi. Osiyo banklariga xos umumiy tendentsiya O'zbekistonda ham kuzatiladi: tijorat banklari yashil loyihalarni yuqori xavfli va past daromadli deb baholab, an'anaviy kredit mahsulotlarini afzal

ko‘radi. O‘zbekiston tijorat banklarining yashil loyihalarga ajratgan kreditlari umumiy kredit portfelining 1-2% ni tashkil etadi, xolos.

Ikkinchidan — uzoq muddatli kapital yetishmasligi. Yashil infratuzilma loyihalari (quyosh elektr stansiyalari, shamol parklari, energiya tejamkor binolar) odatda 10–20 yillik to‘lov muddatini talab etadi. O‘zbekiston moliya bozorida esa uzoq muddatli moliyalashtirish vositalari — yashil obligatsiyalar, yashil fondlar — hali rivojlanish bosqichida.

Uchinchidan — yashil standartlar va sertifikatlash tizimining zaif ekanligi. Xalqaro "yashil" mezonlarga (Green Bond Principles, Climate Bonds Standard) moslik O‘zbekiston emitentlari uchun hali majburiy emas, bu esa xorijiy institutsional investorlarni jalb etishni qiyinlashtiradi.

Xitoy tajribasi alohida o‘rganishga loyiq: Pekin davlat banklari orqali yashil loyihalarni subsidiyalash va majburiy yashil kredit kvotalarini joriy etish mexanizmini muvaffaqiyatli qo‘llagan. Buning natijasida Xitoy 199,1 mlrd. dollar bilan global yashil investitsiyalar reytingida ikkinchi o‘rinni egalladi. O‘zbekiston uchun bu tajribani moslashtirilgan holda qabul qilish — ya‘ni davlat banklari orqali imtiyozli yashil kreditlar ajratish va Markaziy bank tomonidan yashil kredit ko‘rsatkichlarini belgilash — istiqbolli yo‘nalish hisoblanadi. Germaniya va Fransiya tajribasi esa boshqa bir saboq beradi: bu davlatlarda yashil moliyalashtirish xususiy bank sektori ishtirokisiz rivojlana olmadi. Ular soliq imtiyozlari, kafolat mexanizmlari va ikkilamchi yashil obligatsiya bozori orqali xususiy kapitalning yashil loyihalarga oqimini ta‘minladi. O‘zbekistonda ham xususiy tijorat banklarini yashil moliyalashtirishga jalb etish uchun iqtisodiy rag‘batlantirish tizimi yaratilishi zarur.

Erkin iqtisodiy hududlar (EIH) yashil investitsiyalarni jalb etishning samarali vositasi sifatida ko‘rib chiqilishi mumkin. Dunyodagi 3,5 mingdan ziyod EIHning global tajribasi shuni ko‘rsatadiki, ushbu hududlarda maxsus yashil standartlar va moliyaviy imtiyozlar belgilansa, xorijiy yashil investitsiyalar hajmi sezilarli darajada oshadi. O‘zbekistondagi mavjud EIHlar — Navoiy, Angren, Jizzax erkin iqtisodiy hududlari — yashil texnologiyalar ishlab chiqarish va qayta tiklanadigan energiya loyihalari uchun strategik platforma vazifasini o‘tashi mumkin.

Global yashil investitsiyalar bozori jadal sur‘atlarda rivojlanmoqda — 2020–2021-yillarda umumiy hajm 1,3 trillion AQSh dollariga yetdi. Biroq bu mablag‘larning geographik taqsimoti keskin notekis bo‘lib, AQSH, Xitoy va Yevropa davlatlari umumiy hajmning 72,5% dan ziyodini tashkil etadi. O‘rta Osiyo mintaqasi, jumladan O‘zbekiston, hali global yashil moliya bozorida etarli ulushga ega emas. Osiyo tijorat banklari yashil loyihalarni moliyalashtirishdan asosan ikki omil tufayli qochadi: yuqori xavf darajasi va an‘anaviy energetika loyihalariga nisbatan past daromadlilik. Ushbu tendentsiya O‘zbekiston bank sektorida ham yaqqol kuzatiladi —

tijorat banklarining yashil kreditlari umumiy kredit portfelining atigi 1–2% ini tashkil etadi. O‘zbekiston yashil iqtisodiyotga o‘tish uchun muhim institutsional bazani shakllantira boshladi: "O‘zbekiston — 2030" strategiyasi, Iqlim o‘zgarishiga moslashuv milliy strategiyasi va 2030-yilga qadar qayta tiklanadigan energiya ulushini 25% ga yetkazish maqsadi belgilangan. Biroq moliyaviy mexanizmlar bu siyosiy maqsadlardan orqada qolmoqda. Erkin iqtisodiy hududlar yashil investitsiyalarni jalb etishning samarali vositasi bo‘lishi mumkin. Dunyodagi 3,5 mingdan ortiq EIHning tajribasi ko‘rsatadiki, maxsus yashil standartlar va moliyaviy imtiyozlar birgalikda qo‘llanilsa, xorijiy investitsiyalar hajmi sezilarli darajada oshadi. Tadqiqot natijalari va xalqaro tajriba tahlili asosida O‘zbekiston uchun quyidagi tavsiya ishlab chiqildi: O‘zbekistonda yashil investitsiyalar va moliyalashtirish mexanizmlarini samarali rivojlantirish uchun kompleks yondashuv talab etiladi. Avvalo, milliy yashil obligatsiyalar bozorini shakllantirish va xalqaro Climate Bonds Standard talablariga moslashish orqali xorijiy institutsional investorlar ishonchini mustahkamlash lozim. Bank sektorini rag‘batlantirish maqsadida Markaziy bank tijorat banklari uchun yashil kreditlar bo‘yicha imtiyozli qayta moliyalashtirish stavkalarini joriy etishi, Navoiy, Angren va Jizzax erkin iqtisodiy hududlarida esa yashil texnologiyalar klasterlari tashkil etib, soliq va bojxona imtiyozlari belgilanishi maqsadga muvofiq. Xalqaro moliya institutlari — ADB, EBRD, GCF— bilan hamkorlikni chuqurlashtirish va davlat xizmatchilari hamda bank mutaxassislarini yashil moliya standartlari bo‘yicha o‘qitish tizimini yo‘lga qo‘yish ham ustuvor vazifa hisoblanadi. Barcha ushbu choralarning samaradorligini ta‘minlash uchun yashil investitsiyalar hajmi va yo‘nalishlarini kuzatuvchi milliy monitoring tizimi yaratilishi zarur bo‘lib, bu O‘zbekistonning global yashil moliya bozorida raqobatbardosh mavqe egallashiga zamin hozirlaydi.[3]

O‘zbekiston yashil investitsiyalar sohasida katta salohiyatga ega, biroq bu salohiyatni ro‘yobga chiqarish uchun bank sektori islohoti, yashil moliya vositalarini rivojlantirish va xalqaro standartlarga integratsiya — uchta ustuvor yo‘nalish bo‘yicha tizimli siyosat amalga oshirilishi talab etiladi.

Yashil investitsiyalar va moliyalashtirish mexanizmlari mavzusi O‘zbekiston kontekstida har tomonlama tahlil qilinib, muammolarni hal etish uchun quyidagi tadbirlar amalga oshiririshi lozim:

Birinchi, davlat tomonidan yashil loyihalar uchun imtiyozli kreditlar va subsidiyalar tizimini joriy etish, foiz stavkalarini pasaytirish hamda kreditlash muddatlarini uzaytirish lozim.

Ikkinchi, yashil obligatsiyalar va ESG standartlariga oid huquqiy bazani mustahkamlash, "yashil bo‘yash"ning oldini oluvchi nazorat mexanizmlarini shakllantirish kerak.

Uchinchidan, mahalliy mutaxassislar malakasini oshirish maqsadida xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda o'quv dasturlari va texnik yordam loyihalari amalga oshirilishi lozim.

To'rtinchidan, yashil moliyaviy vositalar bozorini rivojlantirish, xususan yashil obligatsiyalar va "blended finance" mexanizmlarini kengaytirish zarur. Nihoyat, xususiy va davlat sektorlari o'rtasida sheriklikni kuchaytirish yashil investitsiyalar hajmini sezilarli darajada oshirishga xizmat qiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. United Nations Environment Programme (UNEP). (2021). Global Trends in Renewable Energy Investment 2021. Frankfurt School of Finance & Management.j
2. O'zbekiston Respublikasi normativ-huquqiy hujjatlari O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 1-fevraldagi PF-5635-son Farmoni. "O'zbekiston — 2030" strategiyasi to'g'risida. Toshkent.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 4-oktabrdagi PF-6253-son Farmoni. Iqlim o'zgarishiga moslashuv milliy strategiyasini tasdiqlash to'g'risida. Toshkent.
4. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki. (2022). Yashil moliyalashtirish yo'nalishlari bo'yicha tavsiyalar. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki.
5. UNCTAD. (2021). World Investment Report 2021: Investing in Sustainable Recovery. Geneva: United Nations.
6. Bo'taboyev M.T., Ismanov I.N. "Yashil iqtisodiyot" o'quv qo'llanma. Farg'ona-2024
7. Buriyev Sh.B. Yashil moliyalashtirish mexanizmlari va ularning iqtisodiy o'sishga ta'siri: O'zbekiston misolida
8. Asian Development Bank (ADB). (2021). Green Finance Strategies for Post-COVID-19 Economic Recovery in Developing Asia. Manila: ADB Publications.
9. European Investment Bank (EIB). (2021). EIB Climate Strategy: Financing the Green Transition. Luxembourg: EIB Group.
10. Green Climate Fund (GCF). (2022). Annual Report 2021: Accelerating the Shift to a Climate-Safe Future. Incheon: GCF Secretariat.